

*Zayniddiova Sarvinoz Jamoliddin qizi*

*O'zbekiston Jahon Tillari Universiteti Talabasi*

## KOREYS VA O'ZBEK MAQOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

**ANNOTATSIYA:**Ushbu ilmiy maqola o'zbek hamda koreys xalq maqollaridagi obrazlarning o'xshash va farqli jihatlarini bir-biriga taqqoslagan holda ifodalab beradi. Bundan tashqari, koreys tilidagi ba'zi maqollarning o'zbekcha muqobillari yoziladi.

**Kalit so'zlar:**Maqola, xalq, muqobil, qiyoslash

**АННОТАЦИЯ:**В данной научной статье сравниваются сходства и различия образов в узбекских и корейских народных пословицах. Кроме того, написаны узбекские версии некоторых статей на корейском языке.

**Ключевые слова :**Статья, народ, альтернатива, сравнение

**ABSTRACT :**This research article compares the similarities and differences of images in Uzbek and Korean folk proverbs. In addition, Uzbek versions of some proverbs which were written in Korean.

**Keywords :**Proverb, nation, alternative, comparison

### KIRISH

Til jamiyat tarixidan darak beruvchi buyuk vosita bo'lib, insonning ma'naviy va ma'rifiy shakillanishi va rivojlanishi uchun zarurdir. Til, inson va jamiyat bir-birisiz bo'lmaydi. Til inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liqdir.<sup>1</sup> Maqollar ham shular jumlasidandir. Shuningdek, maqollarda tarixiy shaxslar, diqqatga sazovor joylar va hattoki, milliy qadriyat va an'analarimizni ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Til jamiyat uchun xizmat qiladi va uning a'zolari muloqot qilishni ta'minlaydi.

### ASOSIY QISM

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arab tilida "qavlun –gapirmoq, aytmoq" so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi.<sup>2</sup>Maqollar qaysi tilda yaratilgan bo'lmasin, insonlarni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi va oldindan bo'lishi muqarrar yomon hodisalarning oldini oladi..Bundan tashqari, har bir maqola o'ziga xos ko'rinishga va xususiyatiga egadir.<sup>3</sup>Shuning uchun bo'lsa kerak, bir tildan boshqa tilga maqolani tarjima qilinganda u to'g'ridan-to'g'ri emas, balki iloji boricha muqobili topishiga harakat qilinadi. Koreys tilida ham shunday .Keling misollar ko'rib chiqamiz. Masalan, **소 잃고 외양간 고친다**- 이미 일을 가르친뒤에는 누우쳐도 소용없다는 뜻". Tarjimasi. Sigirni yo'qotgandan keyin omborni tuzatishdir. Noto'g'ri ish qilgandan keyin afsuslanishdan foyda yo'q, degan ma'no nazarda tutilgan. O'zbek tilida esa bunday vaziyatda "So'nggi pushaymon, o'zingga dushman" maqoli to'g'ri keladi.

<sup>1</sup> Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. -Т., 2010, Б.6

<sup>2</sup> Imomov K., Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990, B. 91-93

<sup>3</sup> Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990.

Yana misol keltiradigan bo'lsak, “ 썰 먹고 알 먹는다 ”. To'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak, “qovunni yeb keyin tuxum yeying”. Ma'nosi tushunarsiz bo'lib qolgan. Bu maqolning o'zbekcha muqobili “Bitta o'q bilan ikkita quyovni urmoq”dir.

“ 낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가 듣는다 ”. So'zma-so'z tarjimasida “Qush kunduzning so'zlarini, sichqon esa tunning so'zlarini tinglaydi” degan ma'noni nazarda tutgan, ya'ni “Devorning ham qulog'i bor” maqoli bu koreys maqolining muqobilidir.<sup>4</sup>

“ 백지장도 맞들면 낫다 ” ning tarjimasida: bo'sh qog'oz bo'lishdan yaxshiroqdir. Ya'ni biror narsa qanchalik oson bo'lmasin, uni birgalikda qilish yaxshiroqdir. O'zbek tilida “Birdan ikki yaxshi, ikkidan uch yaxshi” ya'ni bitta odamdan ko'ra ikkita birgalikda yaxshiroq, degan ma'noni bildirib kelgan.

Bundan tashqari, koreys tili o'zbek tiliga o'xshashab ketganligi sababli, ba'zi maqollarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak ham, muqobilini topish shart bo'lmaydi. Misol qilib, “ 웃음은 최고의 명약이다 ” maqolini olsak bo'ladi. “Kulgu eng yaxshi dori” yoki “ 눈은 마음의 거울 ” maqolini oladigan bo'lsak, “Ko'z qalb oynasidir”.

## XULOSA

Har bir maqolada o'sha xalqning tarixi, an'analari hamda o'zlariga xos udumlari yotadi. Bejizga Frensis Bekon : “Biron xalqning maqollarida siz o'sha xalqning iste'dodi, aql-zakovati va ruhini topishingiz mumkin”- demagan<sup>5</sup>. Maqolalar orqali xalq keying avlodlarga qadryatlarini meros qilib qoldiradi. Yuqoridagi misollarni ko'rib har xil davlatlarda yashasakda, ko'p jihatdan o'xshash ekanligimizni maqollarning muqobili topilishidan bilib olishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. -Т., 2010, Б.6
2. Imomov K., Mirzayev T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990, B. 91-93
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990.
4. <https://www.90daykorean.com/korean-proverbs-sayings/>
5. Sreechinth C. Thoughts of Greatest Western Thinkers. – UB Tech, 2016. – P. 116.

<sup>4</sup> <https://www.90daykorean.com/korean-proverbs-sayings/>

<sup>5</sup> Sreechinth C. Thoughts of Greatest Western Thinkers. – UB Tech, 2016. – P. 116.